



FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TARJIMADA PRAGMATIK  
MOSLASHUVI VA EKVIVALENTLIGI

Iroda Fatxutdinova

TDSHU 2-kurs Tayanch doktoranti, Toshkent, O'zbekiston.

E-mail: [Irodaislomzoda7@gmail.com](mailto:Irodaislomzoda7@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada frazeologik birliklarning tarjimada pragmatik moslashtirilish va ekvivalentlik masalasi tahlil qilinadi. Frazeologik birliklar nafaqat semantik ekvivalentlik, balki kontekstual va madaniy muvofiqlik bilan ham uzatilishi kerak. Tarjimonlar so'zma-so'z tarjimadan ko'ra, iboralar mazmuni va emotsional ta'sirini saqlashga intilishlari lozim. Maqolada Roman Jakobson, Eugene Nida va Peter Newmarkning ekvivalentlik nazariyalari asosida frazeologik birliklarning tarjimada **kommunikativ va semantik jihatlarini ko'rib chiqiladi**. Turli tillardagi misollar orqali **pragmatik moslashtirish usullari** tahlil qilinib, tarjimon uchun amaliy tavsiyalar beriladi. Tadqiqot tarjima nazariyasini mukammallashtirish va madaniy nuanslarni hisobga olishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Frazeologik birliklar, tarjima nazariyasi, semantik ekvivalentlik, pragmatik moslashtirish, konnotativ ma'no, kommunikativ tarjima, madaniy rezonans, interlingvistik ekvivalentlik, dinamik ekvivalentlik, frazeologik moslik.

### Kirish

Frazeologik birliklar har bir tilning madaniy va lingvistik xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim unsurlardir. Ular nafaqat **lug'aviy ma'noni**, balki **konnotativ va pragmatik jihatlarini** ham o'z ichiga oladi. Tarjimada frazeologik birliklarni ekvivalent tarzda uzatish muhim masala bo'lib, bunda nafaqat **semantik ekvivalentlik**, balki **pragmatik moslik** ham hisobga olinishi kerak.

Ba'zan frazeologik birliklarning so'zma-so'z tarjimasi boshqa tilning madaniy va kommunikativ tizimida begona tuyulishi mumkin, shu sababli ularni pragmatik moslashtirish talab etiladi.

### 2. Frazeologik birliklarning pragmatik moslashuvi va ekvivalentligi masalasi

Frazeologik birliklarning tarjimada pragmatik moslashuvi haqida turli olimlar fikr bildirgan:

- **Roman Jakobson** tarjima jarayonini **intralingvistik, interlingvistik va ekstralingvistik** ekvivalentlikka ajratadi<sup>46</sup>. Frazeologik birliklar interlingvistik tarjimada muhim rol o'ynaydi, chunki turli tillar o'rtasida ma'no uzatilishi kerak.

<sup>46</sup> Roman Jakobson (1959/2000) On Linguistic Aspects of Translation. in R. Brower (ed.) (1959) On Translation, Cambridge MA: Harvard University Press, pp. 232-9.



- **Evgeni Nayda** ekvivalentlikni **formal** va **dinamik** turlarga ajratadi<sup>47</sup>. Frazologik birliklar ko'pincha dinamik ekvivalentlik asosida tarjima qilinadi, chunki ular madaniy kontekstga moslashtirilishi kerak.
- **Peter Newmark** ekvivalentlikni **semantik** va **kommunikativ** tarjima sifatida ajratadi<sup>48</sup>. Frazologik birliklar kommunikativ tarjimada muhim rol o'ynaydi, chunki ularning mazmuni va ta'siri saqlanishi kerak.

### **3. Amaliy Tahlil**

Frazologik birliklarning tarjimada pragmatik moslashuvi quyidagi misollar orqali tahlil qilindi:

**Frazologik birliklar:** Masalan, hindiy tilidagi “ऊंट के मुंह में जीरा।” *Be'vosita tarjima:* “Tuya og'zida zira” iborasi va o'zbek tilidagi “Dengizdan bir tomchi” yoki “Hamir uchidan patir” iborasiga semantik ekvivalentlik jihatidan o'xshashlikka ega, chunki har ikkisi juda katta hajmdagi narsaga juda kichik miqdorda narsa qo'shilganida qo'llaniladi. “Dengizdan bir tomchi” va “Hamir uchidan patir” iborasi semantik ekvivalentlik jihatidan o'xshash bo'lsa-da, ularning qo'llanilish shart-sharoiti turlicha. Semantik ekvivalentlik faqatgina to'g'ri tarjimaga asoslanmaydi, balki frazeologik birlikning mazmun va ta'siri ham hisobga olinishi kerak. Masalan, “Hamir uchida patir” iborasi o'zbek tilida kam miqdor yoki yetarli bo'lmagan narsani anglatib, tanqidiy konnotatsiyaga ega. Hindiy tilidagi “ऊंट के मुंह में जीरा।” iborasi ham tanqidiy ohangni saqlab qoladi, shu sababli ekvivalentlikni pragmatik jihatdan moslashtirish muhim.

Tarjimon frazeologik birlikning nafaqat asosiy ma'nosini, balki uning tanqidiy, istehzoli yoki emotsional ta'sirini ham to'g'ri uzatishi kerak<sup>49</sup>. Agar ibora oddiygina so'zma-so'z tarjima qilinsa, u boshqa tilga mos kelmasligi va ma'nosining kuchi yo'qolishi mumkin. Shu sababli, tarjimada semantik ekvivalentlikni pragmatik jihatdan moslashtirish talab qilinadi, ya'ni iboraning asosiy ma'nosi saqlanib, u maqsadli tilning madaniy va emotsional kontekstiga moslashishi kerak.

Hindiy tilidan o'zbek tiliga tarjimada metaforalar ba'zan to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentga ega bo'lmaydi. Masalan, hindiy tilidagi “अंगार बरसना” (“Olov yog'ishi”) ifodasi o'zbekcha ekvivalenti “G'azab otashidek yog'di” bo'lib, agar bu to'g'ridan-to'g'ri “Olov yog'ishi” deb tarjima qilinsa, o'zbek tilida begona tuyulishi mumkin. Bu iboralar **madaniy kontekstni hisobga olib** moslashtirilgan. Shu sababli, **pragmatik moslashtirish** orqali **madaniy rezonans** saqlanadi.

<sup>47</sup> Nida, E. A., Taber, C. R. The Theory and Practice of Translation. Netherlands: E. J. Brill, Leiden. 1982.

<sup>48</sup> P.Newmark, A textbook of translation. Shanghai foreign language education press. 1988.-P.280

<sup>49</sup> Fatxutdinova I.A. Tarjimada ekvivalentlikning muloqot maqsadini ifodalash vositasi. Oriental renaissance xalqaro ilmiy jurnali-2021. ISSN 2181-1784. B.140-149



***Konnotativ ma'no:***

Frazeologik birliklarning tarjimada **konnotativ ma'nosi** ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, **“Hamir uchida patir”** iborasi ba'zi tillarda ma'nosini o'zgartirishi mumkin. Shu sababli, tarjimon frazeologik birlikning nafaqat asosiy ma'nosini, balki uning tanqidiy, istehzoli yoki emotsional ta'sirini ham to'g'ri uzatishi kerak.

**4. Xulosa.**

Frazeologik birliklarni tarjimada to'g'ri ekvivalent bilan almashtirish nafaqat lingvistik, balki madaniy jihatlarni ham hisobga olishni talab etadi. Frazeologik birliklarning pragmatik moslashuvi tarjimaning tabiiyligi va madaniy kontekstga mosligini ta'minlaydi.

Misollar shuni ko'rsatadiki, tarjima jarayonida frazeologik birliklarning semantik ma'nosi bilan birga, emotsional ta'siri va konnotativ jihati ham uzatilishi kerak. Aks holda, iboraning o'ziga xosligi yo'qolib, tarjimada mantiqiy uzilish yuzaga kelishi mumkin. Bu tahlillar tarjimonlar uchun muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, tarjima jarayonida frazeologik birliklarning pragmatik moslashtirilishini chuqur tushunish va madaniy rezonansni saqlash zarurligini ta'kidlaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Roman Jakobson (1959/2000) On Linguistic Aspects of Translation. in R. Brower (ed.) 1959. On Translation, Cambridge MA: Harvard University Press, pp. 232-9.
2. Nida, E. A., Taber, C. R. The Theory and Practice of Translation. Netherlands: E. J. Brill, Leiden. 1982.
3. P. Newmark, A textbook of translation. Shanghai foreign language education press. 1988.-P.280.
4. Fatxutdinova I.A. Tarjimada ekvivalentlikning muloqot maqsadini ifodalash vositasi. Oriental renaissance xalqaro ilmiy jurnali-2021. ISSN 2181-1784. B.140-149
5. Fatxutdinova I.A. Hindiycha o'zbekcha o'xshatishlar tarjimasida ekvivalentlik masalasi. Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi 2022 yil 6-soni, ISSN 2181-0427. B.419-424.

